

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

OKTYABR, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, oktyabr

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-8337-0-0

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 40 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 2-oktyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-8337-0-0

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Qirg'izov Baxtiyor

BURHONIDDIN MARG'INONIY HAZRATLARI NOMLARI BILAN BOG'LIQ FARG'ONA
VILOYATIDAGI YODGORLIK VA ZIYORATGOHLAR 4-9

IQTISODIYOT FANLARI

Obidova Intizor

SANOAT KORXONALARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA DAVLAT
SIYOSATI 10-19

FILOLOGIYA FANLARI

Xoldorova Xulkaroy

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DINIY MATNLAR USLUBINING EKSTRALINGVITIK
XUSUSIYATLARI 20-23

YURIDIK FANLARI

Axmedov Axadulla

MADANIY MEROS SOHASIDAGI MUNOSABATLARNING KONSTITUTSIYAVIY – HUQUQIY
ASOSLARI TAHLILI 24-30

Nurmamatova Noila

KONSTITUTSIYAVIY SUDLARDA VAKILLIK INSTITUTINING O'RNI VA XORIJIY DAVLATLAR
TAJRIBASI 31-33

Бекимбетова Тумарис

ГАРМОНИЗАЦИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА С ПРАВОМ ЕВРОПЕЙСКОГО
СОЮЗА: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ 34-36

PEDAGOGIKA FANLARI

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA TA'LIMIDA PISA USLUBIDAGI TOPSHIRIQLAR ORQALI REAL HAYOTGA
YO'NALTIRILGAN BILIMLAR BERISH 37-39

KONSTITUTSIYAVIY SUDLARDA VAKILLIK INSTITUTINING O'RNINI VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Nurmamatova Noila Doniyorovna

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0000-0001-5093-0300

Email: nurmamatovanoila@gmail.com

Tel: 90 821 27 99

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur tezisda konstitutsiyaviy sudlarda vakillik institutining huquqiy tartibga solinishi, uning sud jarayonlaridagi o'rnini va samaradorlikka ta'siri yoritilgan. Olimlarning qarashlari asosida vakillik institutining sudlov adolatini ta'minlashdagi nazariy va amaliy ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Albaniya, Andorra, Chexiya, Gruziya, Germaniya, Italiya, Latviya, Lixenshteyn, Lyuksemburg, Slovakiya, Sloveniya, Janubiy Afrika va Shveysariya kabi mamlakatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, majburiy va ixtiyoriy vakillik normalari o'rtasidagi farqlar ochib berilgan. Muallif konstitutsiyaviy sudlarda vakil sifatida advokat yoki boshqa yuridik malakaga ega shaxslarning ishtiroki taraf huquqlarining ishonchli himoyasini ta'minlashi bilan birga, Janubiy Afrika va Shveysariya tajribasida ko'zda tutilgan davlat tomonidan yuridik yordam mexanizmlarini alohida ahamiyatga ega deb hisoblaydi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiyaviy sud, vakillik instituti, yuridik yordam, lektor, advokat, prokuror.

THE ROLE OF THE REPRESENTATION INSTITUTE IN CONSTITUTIONAL COURTS AND THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES

Nurmamatova Noila Doniyorovna

PhD Researcher, Tashkent State University of Law

Annotation. This thesis examines the legal regulation of the representation institute in constitutional courts, its role in judicial proceedings, and its impact on efficiency. Based on the views of scholars, the theoretical and practical significance of representation in ensuring judicial fairness is analyzed. In addition, the comparative legal study of the practices of Albania, Andorra, the Czech Republic, Georgia, Germany, Italy, Latvia, Liechtenstein, Luxembourg, Slovakia, Slovenia, South Africa, and Switzerland highlights the differences between mandatory and optional representation. The author concludes that the participation of advocates or other legally qualified persons as representatives in constitutional courts ensures reliable protection of the parties' rights, while the mechanisms of state-provided legal assistance, as envisaged in the experiences of South Africa and Switzerland, deserve particular attention.

Key words: Constitutional Court, representation institute, legal assistance, lecturer, advocate, prosecutor.

Konstitutsiyaviy sudlarda vakillik institutining huquqiy tartibga solinishi sud jarayonlarining samaradorligi va taraflarning huquqlarini to'liq himoya qilishini ta'minlaydi. Mazkur institut, avvalo, fuqarolarning konstitutsiyaviy shikoyatlar yoki boshqa murojaatlar bo'yicha malakali yuridik yordamdan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Olimlarning vakillik masalasida fikrlariga to'xtalsak, olim V.C.Jacksonning fikricha, konstitutsiyaviy sudlarda vakillik instituti sud jarayonlarining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi, chunki vakillar (advokatlar) huquqiy masalalarni chuqur tushunib, sudga to'g'ri yondashuvni ta'minlaydilar [1]. R. Hirschl esa vakillik instituti konstitutsiyaviy sudlarda

tarafning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [2].

Konstitutsiyaviy sud majlislarida vakillar orqali ishtirok etish tartibi mamlakatlarga qarab farqlanadi. Ba'zi davlatlarda bu majburiy xarakterga ega bo'lsa, boshqalarida ixtiyoriy ahamiyat kasb etadi. Albaniya qonunchiligiga ko'ra, fuqarolar Konstitutsiyaviy sudga o'zlari yoki vakillari orqali jarayonda qatnashishlari mumkin. Andorrada esa, ariza taraflardan kiritilgan taqdirda ham, jarayonda professional yuristlar ishtiroki talab etiladi. Ya'ni, agar arizachi prokuror yoki sud bo'lmasa, tarafning manfaati Advokatlar palatasi advokati tomonidan himoya qilinadi. Davlat manfaatlarida esa Andorra Davlat yuridik xizmati advokatlari tomonidan, zarur hollarda boshqa advokatlar tomonidan himoya qilinadi. Chexiya Respublikasida esa, ishtirok etuvchi taraf yoki uchinchi shaxslar Konstitutsiyaviy sud jarayonida o'z advokatlari bilan qatnashishi shart va arizani taqdim etish ham bundan mustasno emas. Gruziyada esa, Chexiyadan farqli ravishda, taraflar jarayonning har qanday bosqichida advokatlardan tashqari, har qanday oliy ma'lumotli yuristga vakillik huquqini taqdim etishi mumkin [3].

Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudida esa Gruziya qonunchiligidagi normalardan tashqari, vakil oliy yuridik ma'lumotli lektor bo'lishi ham mumkinligi qayd etilgan [4]. Italiyada esa taraflar Konstitutsiyaviy sud majlislarida kassatsiya sudiga kela oladigan advokatlarning vakilligidan foydalanishlari lozim [5]. Latviyada vakillik bo'yicha ixtiyoriylik belgilangan bo'lib, ishda ishtirok etuvchi - ariza beruvchi, shuningdek hujjat bergan muassasa yoki mansabdor shaxs bahsli harakat, ya'ni Konstitutsiyaviy sudga protsessual harakatlarni o'zi amalga oshirishi yoki tegishli vakillari tomonidan taqdim etishi mumkin [6].

Lixenshteynda esa tomonlar o'zlari yakka tartibdagi shikoyatlar berishi va muhokamada ishtirok etishi, tinglovlarni o'tkazishi mumkin yoki ular Lixenshteyn knyazligida qonun yoki boshqa yo'l bilan faoliyat yuritishga ruxsat berilgan va reestrda kiritilgan advokatlar yoki hukumat ruxsat bergan advokatlar tomonidan vakillik qilishni tanlashlari mumkin [7]. Lixenshteynga o'xshash tarzda Lyuksemburgda ham taraflarga Konstitutsiyaviy sudga har yili Advokatlar palatasi tomonidan tuziladigan advokatlar ro'yxatida ko'rsatilgan har qanday advokat orqali o'z arizalari bilan chiqishlari va uning oldida so'z yuritishlari mumkinligi ta'kidlangan [8]. Slovakiyada ham vakillik borasida ixtiyoriylik belgilangan bo'lib, unga ko'ra, Konstitutsiyaviy sudga beriladigan ariza arizachi yoki uning vakili tomonidan imzolaniishi mumkin hamda vakillik haqidagi shartnomada advokatning aynan Konstitutsiyaviy sudning qanday masaladagi protsessda qatnashayotganligi ko'rsatib o'tilishi lozim [9]. Aynan ushbu norma Sloveniya qonunchiligida ham qayd etilgan [10].

Janubiy Afrikada esa vakillik masalasida Konstitutsiyaviy sudning o'zi yo'naltiruvchi vazifasini o'tab, sudning reestrda agar birorta tarafda vakili yo'qligi ko'rinsa, sud ushbu tarafni yuridik yordam ko'rsatuvchi organ yoki tashkilotga yuboradi [11]. Shveytsariyada esa agar taraflardan biri o'ziga advokat yollay olmasa, sud unga yordam berishi mumkin [12].

Demak, turli mamlakatlarda konstitutsiyaviy sud jarayonida vakil ishtiroki majburiy yoki ixtiyoriyligi qonuniylashtirilgan. Aytish joizki, sudga advokat yoki oliy yuridik ma'lumotli shaxsning vakil sifatida ishtirok etishi, taraf uchun harakat qilishi jarayonning sifatli va ishonchli o'tishi uchun xizmat qiladi. Shuningdek, vakilning qanday huquq va majburiyatlarga ega bo'lish masalasi taraf va ushbu vakil o'rtasidagi shartnomada aks ettiriladi. Shu o'rinda,

konstitutsiyaviy sud organining o'zini advokat bilan ta'minlay olmaydigan tarafga bu borada yordam berishi yuzasidan Janubiy Afrika va Shveytsariya tajribasi e'tiborga molik hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Jackson, V. C. (2006). Constitutions as "Living Trees": Comparative Constitutional Law and Interpretive Metaphors. *Fordham Law Review*, 75(2), 921-960.
2. Hirschl, R. (2014). *Comparative Matters: The Renaissance of Comparative Constitutional Law*. Oxford University Press.
3. European Parliamentary Research Service. (2019). *The role of constitutional courts: A comparative law perspective*. European Union.
4. Law on the Federal Constitutional Court (Gesetz über das Bundesverfassungsgericht, BVerfGG) of 12 March 1951 (Federal Law Gazette I, p. 243); as published on 11 August 1993 (Federal Law Gazette I, p. 1473).
5. Law on the composition and procedures of the Constitutional Court of Italy, 1953, Section 20.
6. Law on the Constitutional Court of Latvia, 1996, Article 23.
7. Constitutional Court Act of Lixtenstein , 1921, Article 41.
8. Law on the Constitutional Court of Luxemburg, Article 11.
9. 9 Law on the Organisation of the Constitutional Court of Slovakia, Article 20.
10. Constitutional Court Act of Slovenia, Article 24.a.
11. Rules of the Constitutional Court of South Africa, 1996, Rule 11.
12. Federal Judicature Act of Switherland, 1993, Article 41.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, oktyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 40 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 2-oktyabr

ISBN 978-9910-8337-0-0

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.